Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish	690
Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
Tojibayeva Nazokatxon	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rne	787
To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
Xamidova Nigora Ibrohimovna	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
Абдулахадова Шохид	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
Мухаммадиева Марифат Мурод кизи	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
Ikramova Aziza Aminovna	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
Qarshiboyev Asliddin	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
Xolmatov Pardaboy Qoraboevich	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
Азмиева Э. Э.	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
Xoldarova F. M.	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
Gulyamova Nafisa Burikulovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
Boyqulov Azamat Maxram o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
Sobirov Sarvar Tursunmurotovich	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR O'RINBOSARLARINING MENEJERLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI MAHALLIY SHAROITDA QO'LLASH IMKONIYATLARI



Maxamadaliyeva Ezoza
Rustamxo'ja qizi

"International school of finance
technology and science" instituti
"Economics and computer
engineering" kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0002-6654-2403

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalar chuqur tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Finlyandiya, Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya kabi ilg'or mamlakatlar misolida maktabgacha ta'lim boshqaruv tizimining o'ziga xos tamoyillari, rahbarlarning kasbiy o'sish strategiyalari hamda ularning malakasini oshirishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar tahlil etilgan. Shuningdek, mahalliy sharoitda menejerlik salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, mexanizmlar va innovatsion modellar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, menejerlik ko'nikmalari, rahbarlik, ta'lim menejmenti, xorijiy tajriba, liderlik kompetensiyalari, innovatsion boshqaruv, pedagogik shart-sharoit.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of foreign practices aimed at developing the managerial skills of deputy directors of preschool educational institutions, with a scientific justification for their potential application in the context of Uzbekistan. Using examples from advanced countries such as Finland, Japan, the United States, the United Kingdom, and South Korea, the paper explores the specific principles of preschool management systems, leadership professional development strategies, and modern approaches used in training educational managers. In addition, pedagogical conditions, mechanisms, and innovative models necessary to enhance managerial capacity in local settings have been developed.

Key words: preschool education, managerial skills, leadership, educational management, foreign experience, leadership competencies, innovative management, pedagogical conditions.

Аннотация: В данной статье проведён глубокий анализ зарубежного опыта развития управленческих навыков заместителей директоров дошкольных образовательных организаций, а также научно обоснованы возможности его применения в условиях Узбекистана. На примере таких передовых стран, как Финляндия, Япония, США, Великобритания и Южная Корея, рассмотрены специфические принципы системы управления дошкольным образованием, стратегии профессионального роста руководителей и современные подходы к их повышению квалификации. Кроме того, разработаны педагогические условия, механизмы и инновационные модели, необходимые для развития управленческого потенциала в местных условиях.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческие навыки, лидерство, управление образованием, зарубежный опыт, лидерские компетенции, инновационный менеджмент, педагогические условия.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi barcha mamlakatlarda inson kapitalini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda; ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi shaxsning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta'minlaydigan poydevor hisoblanadi. Shu bois, ushbu tizimni samarali boshqarish hamda unda rahbar kadrlar, xususan, direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da rahbar xodimlarning menejerlik salohiyatini oshirish, ularni xalqaro standartlar asosida qayta tayyorlash va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta’kidlangan; shu bilan birga, ilg’or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish va ularni mahalliy ta’lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Hozirgi davrda menejerlik faqat boshqaruv nazariyasi emas, balki pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin qilinmoqda: maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari yoki uning o’rinbosari nafaqat tashkilot faoliyatini nazorat qiluvchi shaxs, balki lider, motivator va innovatsion boshqaruvchi bo’lishi lozim; shu sababli xorijiy mamlakatlarda ta’lim rahbarlarini tayyorlashda an’anaviy yondashuvlar o’rniga kompetensiyaga asoslangan, amaliy faoliyatga yo’naltirilgan metodlar keng tatbiq etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil qilingan manbalar shuni ko’rsatadiki, xorijiy tajribada maktabgacha ta’lim rahbarlarini tayyorlashda menejerlik va liderlik kompetensiyalariga alohida e’tibor beriladi (Bush & Middlewood, 2013; Heikka & Wani-ganayake, 2011); Finlyandiya, Buyuk Britaniya va AQSh amaliyotida “pedagogik liderlik”, “kollektiv boshqaruv” va “doimiy o’qish” tamoyillari ustuvor o’rin tutadi. Rodd (2013) hamda Kagan & Bowman (1997) rahbarlarning malaka oshirish, o’zini rivojlantirish va refleksiv yondashuv orqali menejerlik samaradorligini oshirish zarurligini asoslaydi; OECD (2022) hisobotida esa innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlari ta’lim rahbarlari faoliyatining yetakchi omillari sifatida ko’rsatiladi. Mahalliy mualliflar – Sodiqova (2022), Qodirova (2021) va Karimova & Abdurahmonova (2023) – O’zbekiston ta’lim tizimida menejerlik ko’nikmalarini rivojlantirish uchun xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi; Maxamadaliyeva (2024) tadqiqotida esa pedagogik shart-sharoitlar, raqamli menejment va trening dasturlari orqali direktor o’rinbosarlarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari batafsil tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o’rinbosarlarining menejerlik ko’nikmalarini rivojlantirishda xorijiy tajribani o’rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy-metodik yondashuv qo’llanildi; taqqoslama, tizimli, tahliliy, empirik, modellashtrish hamda eksperimental usullar uyg’unlashtirildi. Tadqiqot obyekti – xorijiy mamlakatlar (AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya) maktabgacha ta’lim tizimida rahbar kadrlar, xususan, direktor o’rinbosarlarining menejerlik ko’nikmalarini shakllantirish mexanizmlari; tadqiqot predmeti – mazkur tajribalarni O’zbekiston sharoitida qo’llash imkoniyatlari, ularni milliy ta’lim tizimi uchun moslashtirish mexanizmlari va samaradorlik yo’llaridir. Ish uch bosqichda amalga oshirildi:

- tahliliy bosqichda (2023-2024-yillar) xorijiy mamlakatlarda menejerlik ta’limi tizimi, maktabgacha ta’lim rahbarlari tayyorlash dasturlari hamda ularning o’quv modullari o’rganilib, ilmiy manbalar, xalqaro maqolalar hamda UNESCO, OECD va UNICEF ma’lumotlari asosida tahlillar bajarildi;
- taqqoslash va moslashtirish bosqichida (2024-yil) xorijiy tajribalar O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimi bilan qiyoslandi, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, kommunikatsiya, strategik fikrlash, liderlik hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kabi menejerlik ko’nikmalarining tarkibiy elementlari solishtirilib, milliy sharoit uchun mos modellar ishlab chiqildi;
- eksperimental bosqichda (2024-2025-yillar) Toshkent, Samarqand va Farg’ona viloyatlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida tajriba-sinov ishlari o’tkazilib, direktor o’rinbosarlari uchun menejerlik trening dasturi joriy qilindi va uning natijalari baholandi.

Metodologik asos sifatida quyidagilar qabul qilindi:

- ilmiy yondashuv – menejerlik nazariyasi, ta’lim menejmenti va liderlik konsepsiyalariga tayangan holda tahlil yuritish;
- tizimli yondashuv – menejerlik ko’nikmalarini tashkilotning umumiy boshqaruv tizimi bilan uzviy bog’liq tarzda o’rganish;
- faoliyat yondashuvi – direktor o’rinbosarining amaliy boshqaruv faoliyatini tahlil qilib, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- innovatsion yondashuv – sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va masofaviy o’qitish tizimlari yordamida menejerlik ko’nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko’rib chiqish.



Metodologiya empirik ma'lumotlarni to'plashdan ko'ra nazariy-qiyosiy tahlilga tayangan bo'lib, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, turli manbalar natijalarini solishtirish va ishonchli ilmiy xulosalarga kelish uchun mustahkam asos yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Finlyandiya ta'lim tizimi dunyoda eng muvaffaqiyatli modellaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu mamlakatda maktabgacha ta'lim rahbarlari pedagogik liderlik va strategik boshqaruv yo'nalishida tayyorlanadi. Ular uchun maxsus Educational Leadership and Management dasturi joriy etilgan bo'lib, bu dastur boshqaruv psixologiyasi va pedagogik kommunikatsiya, jamoaviy qaror qabul qilish texnologiyalari, ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash usullari, innovatsion menejerlik va strategik rejalashtirish modullarini o'z ichiga oladi. Finlyandiya ta'lim tizimida direktor o'rinbosarlari har 3 yilda bir marta majburiy qayta tayyorlov kurslarida ishtirok etadi. Bu tizim rahbarlarning doimiy o'sishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, rahbarlar faoliyatini baholashda kompetensiya portfeli tizimi joriy qilingan bo'lib, har bir rahbar o'z yutuqlari, loyihalari, tahlil va takliflarini raqamli shaklda taqdim etadi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim rahbarlari "Kaizen" tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni doimiy takomillashtirish falsafasi asosiy tamoyil hisoblanadi. Direktor o'rinbosarlari har oyda "kollegial muhokama sessiyalari"da ishtirok etib, tashkilot faoliyati samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, yangi tayinlangan rahbarlar uchun mentorlik dasturi mavjud bo'lib, tajribali rahbar bir yil davomida yosh rahbarni amaliyotda kuzatadi, maslahat beradi va birgalikda strategiyalar ishlab chiqadi. Yaponiya ta'lim tizimida rahbarlardan kutiladigan asosiy kompetensiyalar ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy liderlik, innovatsion boshqaruvni amalga oshirish, muloqot madaniyati va konfliktologiya, resurslarni adolatli taqsimlash va hisobdorlikdan iborat. AQShda maktabgacha ta'lim rahbarlarini tayyorlash Professional Learning Community (PLC) konsepsiyasi asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda direktor o'rinbosarlari doimiy hamkorlikda o'rganish jarayonida ishtirok etadi, pedagoglarni motivatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etishda faol rol o'ynaydi, natijalar asosida qaror qabul qilish (data-driven decision-making) ko'nikmalariga ega bo'ladi. Har bir rahbar "Instructional Leadership Program" doirasida 6 oylik intensiv o'qishdan o'tadi va ta'lim sifatini oshirish, kadrlar siyosatini takomillashtirish hamda moliyaviy resurslarni boshqarish ko'nikmalarini egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi aniq strategik yo'nalishlar, kompetensiyalarni baholash tizimi va innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. Finlyandiya menejerlik tayyorgarligi ta'limdagi ishonch, avtonomiya va refleksiya tamoyillariga asoslanadi. Direktor o'rinbosarlari o'zini o'zi rivojlantirish dasturlari (Self-Leadership Programs) orqali doimiy malaka oshirib boradi. Buyuk Britaniyada "Early Years Leadership Program" orqali rahbarlar uchun maxsus menejerlik modullari ishlab chiqilgan bo'lib, bunda team management, risk management, budgeting, decision-making kabi ko'nikmalar amaliy mashg'ulotlar asosida shakllantiriladi. AQShda esa "Head Start Program" orqali rahbar kadrlar uchun Leadership Coaching tizimi joriy etilgan bo'lib, u har bir rahbarning shaxsiy kompetensiya darajasini o'lchab, individual rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim rahbarlari faoliyati raqamli boshqaruv va tahliliy fikrlash asosida baholanadi. Ular "Smart Kindergarten" konsepsiyasi doirasida IT-kompetensiyalarni menejerlik bilan uyg'unlashtiradilar.

Yaponiyada rahbarlar o'rtasida "kollektiv boshqaruv" (collective management) tamoyili asosida tajriba almashish, "mentor-menti" tizimi orqali bilim uzatish amaliyoti keng yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, samarali menejerlik tizimi nazoratga emas, ishonchga; buyruqqa emas, motivatsiyaga; formal boshqaruvga emas, jamoaviy fikrga asoslanadi. Tahlil natijalari asosida O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni to'liq ko'chirish emas, balki mahalliy sharoit, mentalitet, mavjud resurslar va huquqiy me'yorlarga moslashtirish orqali joriy etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Eng samarali yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilandi: menejerlik kompetensiyalarini baholash tizimini yaratish, liderlik va jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish, raqamli menejmentni joriy etish, trening va qayta tayyorlov dasturlarini yo'lga qo'yish hamda innovatsion metodlarni integratsiya qilish. Har bir direktor o'rinbosari uchun menejerlik kompetensiya pasporti (leadership competency passport) ishlab chiqilishi zarur bo'lib, bu tizim rahbarning rejalashtirish, kommunikatsiya, strategik fikrlash va muammoli vaziyatni hal etish ko'nikmalarini baholab boradi. Shuningdek, xorijiy tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda direktor o'rinbosarlari o'rtasida liderlik forumi va tajriba almashish klublarini tashkil etish, Koreya va Finlyandiya tajribasidan foydalangan holda raqamli boshqaruv platformasini joriy etish ham muhimdir. AQSh va Buyuk Britaniya tajribasiga asoslangan "Leadership in Preschool Management" xalqaro trening-modulining ishlab chiqilishi, shuningdek, case-study, business game, project-based learning kabi interaktiv metodlarni qo'llash orqali amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash taklif etiladi. Shu tariqa, xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida O'zbekiston sharoitida menejerlik tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari aniq belgilandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bir qator yo'nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Eng avvalo, milliy menejerlik kompetensiya modelini ishlab chiqish orqali rahbarlarning kasbiy malakasini baholash va rivojlantirish mezonlarini aniq belgilash muhimdir. Shuningdek, direktor o'rinbosarlari uchun raqamli o'qitish va trening dasturlarini yo'lga qo'yish, ularning zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Liderlik, kommunikatsiya va strategik fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik materiallar yaratish esa rahbarlarning tashabbuskorlik va jamoa bilan ishlash salohiyatini mustahkamlaydi. Xorijiy "Leadership Program" tajribasidan foydalangan holda doimiy professional rivojlanish tizimini joriy etish, rahbarlarning uzluksiz o'sishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, "o'zini baholash va refleksiya" madaniyatini rivojlantirish hamda har bir rahbar uchun individual rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqish ularning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Natijada, xorijiy tajribalarning samarali jihatlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimini yanada modernizatsiyalash, menejerlik samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bush, T., & Middlewood, D. (2013). *Leading and Managing People in Education*. London: SAGE Publications. – Ta'lim muassasalarida menejerlik va liderlikni shakllantirish bo'yicha xalqaro manba.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" PF–5884-son Farmon. Xalq so'zi gazetasi, 9-dekabr. – Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab bergan asosiy hujjat.
3. Heikka, J., & Waniganayake, M. (2011). Pedagogical leadership from a distributed perspective within the context of early childhood education. *International Journal of Leadership in Education*, 14(4), 499–512. – Finlyandiya tajribasi asosida pedagogik liderlik va menejerlik kompetensiyalari tahlili.
4. Sodiqova, D. R. (2022). Maktabgacha ta'lim muassasalari boshqaruvining innovatsion mexanizmlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. – Mahalliy boshqaruv tizimida innovatsion menejerlik yondashuvlari yoritilgan.
5. OECD. (2022). *Leadership for Learning: What is Leadership in Early Childhood Education and Care?* Paris: OECD Publishing. – Maktabgacha ta'limda liderlik va boshqaruv tamoyillarining xalqaro tahlili.
6. Maxamadaliyeva, E. R. (2024). Mechanisms for Creating Pedagogical Conditions to Develop Managerial Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Institutions. *Scientific Bulletin of Education and Management*, 2(1), 45–59. – O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari.
7. Rodd, J. (2013). *Leadership in Early Childhood: The Pathway to Professionalism*. Maidenhead: Open University Press. – Rahbarlik va menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari.
8. Qodirova, N. M. (2021). Ta'lim menejmenti nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDPU nashriyoti. – Ta'lim menejmentining nazariy asoslari va O'zbekiston sharoitidagi tatbiqi.
9. Kagan, S. L., & Bowman, B. T. (Eds.). (1997). *Leadership in Early Care and Education*. Washington, D.C.: National Association for the Education of Young Children (NAEYC). – AQShda maktabgacha ta'lim rahbarlarini tayyorlash konsepsiyasi.
10. Karimova, R. A., & Abdurahmonova, Z. T. (2023). Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion boshqaruv va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari. *Pedagogik izlanishlar jurnali*, 4(2), 101–110. – O'zbekiston ta'lim tizimida rahbarlarning innovatsion boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan maqola.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.